



XOTIN-QIZLAR UCHUN TENG HUQUQ VA IMKONIYATLARNING HUQUQIY ASOSLARI

Sitora Ibrohimova Ilhomjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoiy odil sudlov” fakultetining 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10473061>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-January 2024 yil

Ma’qullandi: 05- January 2024 yil

Nashr qilindi: 09- January 2024 yil

KEY WORDS

gender, xotin-qizlar, qonun, kafolat, tenglik, huquq.

ABSTRACT

Mazkur maqolada mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga oid masalalar tegishli qonunchilik va statistik ma’lmuotlar asosida atroflicha huquqiy tahlil qilingan.

So’nggi yillarda, mamlakatimizda oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini ro’yobga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy faolligini va bandligini oshirish, tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish hamda teng huquqliligini ta’minlash borasida samarali ishlar amalga oshirildi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo’yicha respublika komissiyasi hamda Vazirlar Mahkamasi barcha bo’g’indagi har bir davlat organi, tashkiloti va korxonasida, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi, sud tizimida va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda boshqaruv xodimlari orasidagi xotin-qizlarning ulushini 2030-yilga qadar 30 foizga yetkazish talabi davlat korxonalarining ijro organlari, shu jumladan direktorlar kengashi va kuzatuv kengashlarining tarkibini shakllantirishda ham tatbiq etilishini ta’minlanmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylanganligini va xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o’rni tobora kuchayganligini hamda yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko’payganligini qayd etib o’tdi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo’yicha tizimli o’quvlar tashkil etilmoqda Ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimini egalladi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo’lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Bugungi kunga qadar 577 nafar ayol “Mo’tabar ayol” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi. O’zbekiston tarixida birinchi

marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Mamlakatimizda tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi[1].

Shu bilan birga, gender tenglikni ta'minlashga va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etish asosiy vazifalaridan biri hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik asoslarini takomillashtirish yo'nalishida 41 ta normativ-huquqiy hujjat (2 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni va 12 ta qarori hamda hukumatning 25 ta qarori) [2] qabul qilingan.

Shu kunga qadar, davlatimiz tomonidan gender siyosatini amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha qator huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari hamda "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi qarori shular jumlasidan.

Qayd etilgan qonunchilik hujjatlari ichida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida Qonunni alohida e'tirof etish mumkin.

Mazkur Qonun bilan "gender" tushunchasiga aniq ta'rif berilgan. Unga ko'ra, gender bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir[3].

Shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari mazkur Qonunda bevosita ko'rsatilib, unga ko'ra davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlaydi. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'riladi[4].

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida 2022-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni

yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmon bilan xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash borasida ularga oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat byudjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari yo'naltirildi. Farmon bilan xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha — 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha — 10 nafar xotin-qizlarga har yili «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratib borilishi belgilandi[5].

Shuningdek, Ushbu Farmon bilan xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir yana bir nechta ustuvor vazifalar belgilandi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan islohotlar xotin-qizlar uchun jamiyatimizda erkaklar bilan bir qatorda teng imkoniyatlar yaratib, ularning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://ombudsman.uz>
2. <https://lex.uz/en/docs/6345528>
3. <https://lex.uz/docs/4494849>
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son
5. <https://lex.uz/docs/5899498>

INNOVATIVE
ACADEMY